# II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 107 267,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 106,0 % ni tashkil etdi.

Hisobot yilida 46 442,6 mlrd.so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2021- yil yanvar-dekabrga nisbatan o'sish 113,7 %ni tashkil etdi. Jumladan, 20 791,6 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 25 651,0 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari (2021- yil yanvar-dekabrga nisbatan mos ravishda 125,0 % va 105,9 %) ishlab chiqarildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 6,3 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 3,0 % ga o'sishini hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 39,0 % ga va tog'-kon va ochiq konlarni ishlash sanoati 5,1 % ga pasayishida ko'rishimiz mumkin.

**Yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi (mlrd. so'mda)**



## Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 88 467,0 mlrd. so‘mni va o‘tgan yilning shu davriga nisbatan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish indeksi 106,3 % ni tashkil etdi.

O‘z navbatida, ishlab chiqaradigan sanoatda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan avtotransport vositalar, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish 4,8 martaga, koks va qayta ishlangan neft mahsulotlarini ishlab chiqarish 64,9 % ga, ichimliklar ishlab chiqarish 59,8 % ga, kiyim ishlab chiqarish 7,8 % ga oshganligida kuzatishimiz mumkin.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmog‘ining ulushi 7,8 % ni, o‘rta-yuqori texnologiyali 22,2 % ni, o‘rta-quyi texnologiyali 28,8 % ni, quyi texnologiyali 41,2 % ni tashkil etdi.

**Yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, *foizda***



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida o‘rganilganda, joriy yilning yanvar-dekabr oylarida tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 15 030,3 mlrd.so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 94,9 % ni tashkil qildi.

Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo‘yicha tabiiy gaz va xom neft qazib olish hajmi o‘tgan yilning tegishli davriga 5,1 % ga kamaygan, boshqa tog‘-kon sanoati faoliyati esa 3,0 % ga oshganini kuzatish mumkin.

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 3 065,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 96,2 % ni) tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari mahsulotlari o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 49,1 % ga oshgan.

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 704,8 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 61,0 % ni) tashkil etganligi kuzatildi. Bunda, 2022-yil yanvar-dekabr oylarida suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 39,0 % ga kamaygan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi

*(2022- yil yanvar-dekabr oylarida)*

| | mlrd. so‘m | o‘sish sur’ati, foiz hisobida |
|---|---|---|
| **Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi** | **107 267,6** | **106,0** |
| **Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash** | **15 030,3** | **94,9** |
| Xom neft va tabiiy gaz | 14 407,2 | 94,9 |
| Boshqa foydali qazilmalarni qazib olish mahsulotlari | 463,0 | 103,0 |
| Tog‘-kon sanoatida texnika xizmatlari | 151,4 | 184,5 |
| **Ishlab chiqaradigan sanoat** | **88 467,0** | **106,3** |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 10 768,0 | 111,2 |
| Ichimliklar | 11 475,6 | 159,8 |
| Tamaki mahsulotlari | 296,0 | 89,9 |
| To‘qimachilik mahsulotlari | 5 069,0 | 115,3 |
| Kiyimlar | 1 577,7 | 107,8 |
| Charm va charmdan mahsulotlar | 148,1 | 106,0 |
| Yog‘och hamda yog‘och va po‘kakdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari); poxolcha va to‘qish uchun materiallardan yasalgan buyumlar | 1 023,2 | 106,8 |
| Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari | 1 984,9 | 116,7 |
| Nashr qilish xizmatlari va yozilgan materiallarni aks ettirish bo‘yicha xizmatlar | 2 151,4 | 145,4 |
| Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari | 312,0 | 164,9 |
| Kimyo mahsulotlari | 3 544,1 | 103,6 |

*(davomi)*

| | *mlrd. so'm* | *o'sish sur'ati, foiz hisobida* |
|---|---|---|
| Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va farmatsevtika preparatlari | 2 375,1 | 93,1 |
| Rezina va plastmassa buyumlar | 3 500,9 | 100,2 |
| Boshqa nometall mineral buyumlar | 3 804,5 | 86,2 |
| Metallurgiya sanoati | 12 249,7 | 117,5 |
| Mashina va asbob-uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar | 4 329,3 | 120,3 |
| Kompyuterlar, elektron va optik uskunalar | 4 501,5 | 84,6 |
| Elektr uskunalar | 8 928,5 | 101,9 |
| Boshqa guruhlarga kiritilmagan mashinalar va uskunalar | 2 970,5 | 104,5 |
| Avtotransport vositalari, pritseplar va yarim pritseplar | 3 520,3 | 488,0 |
| Boshqa transport vositalari va uskunalar | 719,0 | 109,5 |
| Mebel | 996,8 | 106,0 |
| Boshqa mahsulotlar | 962,9 | 106,9 |
| Mashinalar va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish bo'yicha xizmatlar | 1 257,9 | 88,0 |
| **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash** | **3 065,6** | **96,2** |
| Elektr,bug' ta'minoti tizimlari va konditsionerlari ishlab chiqarish va tarqatish | 2 711,0 | 89,4 |
| Gazsimon yoqilg'ilarni ishlab chiqarish va tarqatish | 354,7 | 149,1 |
| **Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish** | **704,8** | **61,0** |
| Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash | 440,6 | 90,8 |
| Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish | 261,8 | 40,6 |

*(davomi)*

| | mlrd. so'm | o'sish sur'ati, foiz hisobida |
|---|---|---|
| **Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish** | **46 442,6** | **113,7** |
| shu jumladan: | | |
| oziq-ovqat tovarlari | 19 066,4 | 128,8 |
| nooziq-ovqat tovarlari | 25 651,0 | 105,9 |
| Aroq va sharob mahsulotlari | 1 828,9 | 94,3 |

Davlat va xususiy sektorning o'zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta'minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O'z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o'laroq Toshkent shahrida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko'rish mumkin. Tarmoq korxonalari tomonidan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 47 976,0 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish hajmiga 44,7 % ni tashkil etdi, shu bilan birga davlat sektorida 22 679,4 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 21,1 % ni tashkil etdi, nodavlat sektorida 84 588,3 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 78,9 % ni tashkil etdi.

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish davlat va nodavlat sektorlarida 2022 -yil yanvar-dekabr oylarida (*foiz hisobida*)**



Sanoat sohasida modernizatsiyalash ko‘lamlarini jadallashtirish va kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida, sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarda ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi davom ettirildi.

Tarmoq korxonalari tomonidan 2022-yil yanvar-dekabr oylarida 47 976,0 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi quyidagicha tavsiflanadi.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish iqtisodiyotning muhim omili bo‘lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari faoliyati sanoat ishlab chiqarish indeksi 94,9 % ni, qayta ishlash sanoati 106,3 % ni, elektr energiyasi, gaz, bug‘ va konditsiyalangan havo 96,2 % ni, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta foydalanish bo‘yicha xizmatlar 61,0 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish** *(umumiy hajmga nisbatan foizda)*



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish hajmi

*(yirik korxonalar bo‘yicha)*

| | O‘lchov birligi | 2022- yil yanvar-dekabr | 2021- yil yanvar-dekabrga nisbatan % da |
|---|---|---|---|
| **Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash** | | | |
| Neft | *ming tn* | 663,0 | 103,2 |
| Gaz kondensanti | *ming tn* | 717,1 | 97,7 |
| Tabiiy gaz | *mln. kub.m* | 35 246,5 | 97,7 |
| Chaqiq tosh | *tonna* | 3 813548,8 | 3,3 m. |
| **Qayta ishlash sanoati** | | | |
| Osh tuzi | *tonna* | 1 029,9 | - |
| Yangi so'yilgan go'sht (iligI ketmagan va seli q'otgan ) yoki sovutilgan | *tonna* | 38,4 | 111,3 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni | *tonna* | 78 178,1 | 93,4 |
| Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar | *tonna* | 15 143,9 | 137,3 |
| Kunjara va qattiq chiqindilar | *tonna* | 2 436,0 | - |
| Quyiltirilmagan va shakar qo'shilmagan, yog 'liligi 6 % dan yuqori sut va qaymoq | *tonna* | 6 241,8 | 130,0 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan) | *tonna* | 448,5 | 100,3 m. |
| Margarin va spredlar | *tonna* | 6 401,2 | 110,1 |
| Kard yoki taroqda taralmagan paxta tolasi | *tonna* | 4 514,0 | 26,4 |
| Urug‘lik paxta chigiti | *tonna* | 7 951,0 | 30,9 |
| Paxta tiviti (lint) | *tonna* | 413,0 | 20,8 |
| Aroq - ming litr 100% spirt | *ming litr* | 20 172,7 | 94,9 |

*(davomi)*

| | O'lchov birligi | 2022- yil yanvar-dekabr | 2021 - yil yanvar-dekabrga nisbatan % da |
|---|---|---|---|
| Konyak spirti - ming litr 100% spirt | *ming litr* | 6 597,4 | 2,4 m. |
| Uzum vinosini distillash yoki uzumni siqish natijasida olingan spirt nastoykalari - ming litr 100% spirt | *ming litr* | 871,4 | 135,5 |
| Uzum vinolari | *ming litr* | 6 944,9 | 80,8 |
| Pivo | *mln. dona* | 76 296,9 | 112,0 |
| Tamaki mahsulotlari, tamakidan tayyorlangan | *mln.dona* | 1 836,1 | 96,2 |
| Paxtadan yigirilgan ip | *tonna* | 35 310,2 | 67,6 |
| Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj polotnolar | *tonna* | 19 393,6 | 98,9 |
| Trikotaj yoki to'qilgan ustki kiyimlar | *ming dona* | 1 170,1 | 63,7 |
| Ichdan kiyiladigan trikotaj kiyimlar | *ming dona* | 2 404,0 | 54,6 |
| Boshqa ish kiyimlari - ming so'm | *ming so'm* | 3 407,0 | 0,9 |
| Yarim tsellyulozadan tayyorlangan gofrirovka qilish uchun qog'oz (o'rtacha taramlangan) | *tonna* | 1 210,0 | 65,0 |
| Daftarlar | *tonna* | 118,6 | 85,2 |
| Plastmassadan qutichalar, yashiklar, savatlar, panjarasimon idishlar va shu kabi buyumlar - | *tonna* | 17 657,0 | 3,1 m. |
| Gazetalarni bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar | *ming so'm* | 42 927 868,0 | 119,4 |
| Sintetik polimerlar asosidagi bo'yoqlar va laklar | *tonna* | 5 857,0 | 102,0 |
| Denaturlanmagan, spirt konsentratsiyasi 80 % hajmdan kam bo'lmagan etil spirti | *ming litr* | 9 937,0 | 83,7 |

| | *O'lchov birligi* | *2022- yil yanvar - dekabr* | *2021- yil yanvar-dekabrga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|
| Kitoblar, geografiya xaritalar, gidrografik yoki shu kabi kartalarning barcha turlari, reproduksiyalar, chizmalar va fotosuratlar, otkritkalarni bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar | *ming so'm* | 476 057 862,0 | 2,2 m. |
| Bosib chiqarilgan pochta va gerbli markalari, titul hujjatlari, mikroprossesor kartochkalari, cheklar va boshqa qimmatli qog'ozlar va shu kabilarni bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar | *ming so'm* | 11 892 816,0 | 105,2 |
| Haftada to'rt martadan kam chiqadigan jurnallar va davriy nashrlarni bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar | *ming so'm* | 1 534 746,0 | 55,2 |
| Suyultirilgan propan va butan | *ming tonna* | 571,1 | 111,3 |
| Texnik oltingugurt | *tonna* | 233 969,0 | 91,7 |
| Murakkab organik erituvchilar va suyultirgichlar | *tonna* | 80,0 | 177,8 |
| Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, suv muhitida | *tonna* | 15 682,0 | 102,6 |
| Sintetik polimerlar asosidagi bo'yoqlar va laklar | *tonna* | 7 365,0 | 106,8 |
| Denaturlanmagan, spirt konsentratsiyasi 80 % hajmdan kam bo'lmagan etil spirti | *ming litr* | 14 531,0 | 92,0 |
| Birlamchi formalardagi polipropilen | *tonna* | 11 782,0 | 146,7 |
| Chakana savdo uchun qadoqlangan yoki dozalarga bo'lingan, tarkibida penitsilin yoki uning hosilalari bo'lgan, penitsilin kislotasi tuzilmasiga ega yoki tarkibida streptomitsin yoki uning hosilalari bo'lgan medikamentlar | | 167,5 | 103,9 |
| Tarkibida gormonlar yoki antibiotiklar bo'lmagan medikamentlar | *tonna* | 23 485,6 | 154,1 |

*(davomi)*

| | *O'lchov birligi* | *2022- yil yanvar - dekabr* | *2021- yil yanvar-dekabrga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|
| Chakana savdo uchun qadoqlangan, tarkibida boshqa antibiotiklar bo'lgan medikamentlar | tonna | 2 201,0 | 82,5 |
| Binolar va inshootlar uchun sement, beton yoki sun'iy toshdan yig'ma konstruksiyalar elementlari va boshqa buyumlar | *tonna* | 450 322,8 | 14,3 |
| Qurilish uchun o'tga chidamsiz g'ishtlar | *tonna* | 710,2 | 92,4 |
| Butilkalar | *ming dona* | 354 654,8 | 102,9 |
| Sement, beton yoki sun'iy toshdan qurilish uchun g'isht va bloklar | *tonna* | 472 507,2 | 39,6 |
| Temirdan yoki legirlanmagan po'latdan bolg'alangan, issiqlayin prokatka qilingan, issiqlayin cho'zilgan yoki ekstrudirlangan chiviqlar va sterjenlar, jumladan prokatkadan keyin kalavalarga o'ralgan chiviqlar | *tonna* | 125 656,2 | 102,7 |
| Po'latdan choksiz neft va gaz | *tonna* | 31 063,0 | 169,7 |
| Mis sim | *tonna* | 30 451,0 | 106,1 |
| Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz o'ralgan sim, po'lat arqonlar, to'qilgan shnurlar va shu kabi buyumlar | tonna | 192,3 | 13,4 |
| Temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar va to'siqlar | *tonna* | 6,1 | 1,0 |
| Elektrsiz isitiladigan markaziy isitish radiatorlari va ularning qora metallardan yasalgan qismlari | *tonna* | 9 735,3 | 3,7 m. |
| Qishloq xo'jaligi, bog'dorchilik yoki o'rmon xo'jaligida ishlatish uchun dastakli asboblar | *tonna* | 0,5 | 108,2 |
| Bug' qozonlari yoki boshqa bug' generator qozonlar; bug' qizdirgichli suv qozonlari | *tonna* | 5,7 | 2,0 m. |

*(davomi)*

| | *O'lchov birligi* | *2022- yil yanvar - dekabr* | *2021- yil yanvar-dekabrga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|
| 1 kV dan ortiq bo'lmagan kuchlanish uchun avtomatik o'chiruvchilar | *tonna* | 36,1 | 80,6 |
| Kuchlanishi 1 kV dan ortiq bo'lmagam elektr zanjirini o'chirish, almashlab ulash yoki himoyalash uchun apparatura bilan jihozlangan taqsimlash shitlarini va boshqa panellar | *tonna* | 40,2 | 56,0 |
| Izolyatsiya qilingan o'rash simlari | *tonna* | 1 969,2 | 38,0 |
| Kuchlanishi 1 kV dan ortiq bo'lgan (yuqori voltli), boshqa elektr toki o'tkazgichlari | *tonna* | 10 638,7 | 122,5 |
| Sovutkich va muzlatkichlar - | *dona* | 709 064,0 | 151,2 |
| Traktorlar | *dona* | 162,0 | 76,1 |
| Hosil yig'ish va yanchish uchun mashinalar va uskunalarning boshqa guruhlarga kiritilmagan qismlari-t | *dona* | 0,1 | 25,8 |
| Tuproq tayyorlash yoki ishlov berish uchun ishlatiladigan mashinalarning qismlari | *tonna* | 0,7 | 9,3 |
| Seyalki | *dona* | 55,0 | 35,7 |
| Yengil avtomobillar | *dona* | 423,0 | 55,1 |
| Yangi, "Volkswagen Caddy" markali yengil avtomobillar | *dona* | 423,0 | 55,1 |
| Avtomobil dvigateli | *dona* | 225 437,0 | 140,5 |
| Ixtisoslashgan yengil avtomobillar - dona | *dona* | 34,0 | 22,7 |

| | O‘lchov birligi | 2022- yil yanvar-dekabr | 2021- yil yanvar-dekabrga nisbatan % da |
|---|---|---|---|

**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash**

| | | | |
|---|---|---|---|
| Elektroyenergiya | mln.kVt soat | 498,4 | 115,5 |
| Issiqlik energiyasi | ming Gkal | 11 912,8 | 88,3 |
| Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar | ming so‘m | 909 536,0 | 111,2 |

| | O‘lchov birligi | 2022-yil yanvar-dekabr | 2021 -yil yanvar-dekabrga nisbatan % da |
|---|---|---|---|

**Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish**

| | | | |
|---|---|---|---|
| Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar | ming so‘m | 259 238 280,0 | 93,6 |
| Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar | ming so‘m | 164 508 759,0 | 108,4 |
| Xavfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar | ming so‘m | 116 880 499,0 | 100,9 |
| Plastmass chiqindilar | tonna | 1 740,0 | 109,4 |
| Xavfsiz metall chiqindilar | tonna | 1 924,0 | 34,1 |
| Boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar | tonna | 56 491,7 | 112,9 |
| Xavfli (zaharli) kimyoviy chiqindilar | tonna | 374,6 | 90,1 |

## Hududlar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p Yashnobod tumani (Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmining 22,9 % ulushini), Sergeli tumani (11,4 %), Bektemir tumani (9,2 %), Chilonzor tumani (9,0 %), Olmazor tumani (7,4 %), Mirobod tumani (7,3 %) hissasiga to‘g‘ri keladi. Shuning bilan birga, eng kam ulush Uchtepa (4,8 %), Yunusabod (4.8 %), Yangihayot (4.5%) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

### Hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *foizda*

*(2022- yil yanvar-dekabr oylarida)*




Dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sanoat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, Toshkent shahri va tumanlarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmini tumanlararo hamda tumanlarni shahar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish, sanoat mahsulotini aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdori dinamikasini kuzatib borish, hududlardagi ustuvor vazifalarni va o‘sish nuqtalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida, joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi 107 267,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 106,0 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi aholi jon boshiga 36 873,8 ming so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 102,8 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, Toshkent shahrida iste’mol tovarlari ishlab chiqarilishi 46 442,3 mlrd. so‘mni tashkil etib, Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan iste’mol tovarlari hajmi aholi jon boshiga 15 964,9 ming so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 110,3 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin.

## Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini rag‘batlantirish va turlarini kengaytirish, iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan (13,7 % ga) oshishiga ta’sir ko‘rsatdi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi esa 43,3 % ni tashkil etdi.

**Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, jami iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, *foizda***
*(2022- yil yanvar-dekabr oylarida)*




2022-yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 19 066,4 mlrd. so‘mga yetkazilib, jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 41,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 25 651,0 mlrd. so‘m, jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 55,3 %, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 1 725,2 mlrd. so‘m hisoblanib, jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 3,6 % ni tashkil etdi

**Hududlarning jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *foizda*** *(2022- yil yanvar-dekabr oylarida)*




**Hududlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi, *foizda***
*(2022- yil yanvar-dekabr oylarida, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan)*



**Hududlarda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlarning o'sish sur'atlari, *foizda*** *(2022- yil yanvar-dekabr oylarida, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan)*




Bunda, Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishning eng katta fizik hajmi indeksi Bektemir tumani (186,7 %), Yangihayot tumani (160,6 %), Mirzo Ulug'bek tumani (139,9 %), Mirobod tumani (120,3 %) va Uchtepa tumanlarida (114,8 %) kuzatilmoqda.

Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng kichik o'sish sur'atlari Chilonzor tumanlarida (94,3 %), Yaakkasaroy tumani (89,7 %) va Yashnabod tumanlarida (87,9 %) kuzatilgan.

## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda bir maromdagi o'sish ta'minlandi. Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 36,3 % ni tashkil etgan.

**Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, *foizda*** *(yanvar-dekabr)*

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (65,7 %), Yangihayot (59,5 %), Yunusobod (54,0 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichik ulushi Bektemir (29,3 %), Mirobod (28,0 %) va Yashnobod (18,3 %) tumanlarida kuzatildi.

**2022-yil yanvar-dekabr oylarida tumanlar kesimida kichik biznesning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, *foizda***




## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 37 788,5 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

O‘tgan yilda qo‘shma korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 33,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, hisobot davrida bu ko‘rsatkich 35,2 % ni tashkil qildi.

Qo‘shma korxonalar tomonidan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining Respublika sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 6,9 % ni tashkil etdi, bu iqtisodiyotni isloh qilish va liberallashtirishni, jahon bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini berdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, *foizda***
**2022- yil yanvar-dekabr oylarida**



## Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,7 mingdan ortiq sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, ulardan 2134 ta korxona (jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning 12,7 %) Olmazor tumaniga, 2035 ta korxona (12,1 %) Chilonzor tumaniga, 1900 ta korxona (11,3 %) Uchtepa tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

**Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik**
*(2023- yil 1-yanvar holatiga)*




**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik**
*(2022- yil yanvar-dekabr oylarida)*




2022-yil yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida 1558 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo‘lib, ulardan qariyb 12,1 % Olmazor, 11,4 % Yunusobod, 10,0 % Chilonzor tumanlari yuqori ulushga ega.

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari

*(2022- yil yanvar-dekabr oylarida)*

| | *Loyihalar soni, birlikda* | *Ishlab chiqarish hajmi, mln. so‘m* | *Eksportga sotilgan mahsulot hajmi, ming AQSh dollari* | *Yangi tashkil qilingan ish o‘rinlari soni, birlikda* |
|---|---|---|---|---|
| **Jami:** | **400** | **15 554,3** | **249,5** | **1185** |
| *shundan;* | | | | |
| Uchtepa | 15 | 1119,9 | 8,7 | 163 |
| Bektemir | 47 | 641,6 | 24,1 | 99 |
| Yunusobod | 17 | 172,7 | 0,3 | 35 |
| Mirzo Ulug‘bek | 31 | 601,2 | 13,2 | 81 |
| Mirobod | 19 | 245,3 | 1,8 | 48 |
| Shayxontohur | 9 | 943,6 | 0,0 | - |
| Olmazor | 58 | 320,4 | 1,6 | 40 |
| Sergeli | 73 | 3298,6 | 6,1 | 392 |
| Yakkasaroy | 29 | 186,2 | 1,4 | 27 |
| Yashnobod | 25 | 3158,5 | 44,8 | 27 |
| Yangihayot | 34 | 753,1 | 47,6 | 77 |
| Chilonzor | 43 | 4113,2 | 99,9 | 196 |

## Mahalliylashtirish dasturining jami ishlab chiqarish hajmida tumanlarning ulushi, *foizda* 2022- yil yanvar-dekabr oylarida




## Statistik ko‘rsatkichlarga tushuntirish

**Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi** – korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo‘ljallangan, o‘zining nosanoat bo‘linmalariga va kapital qurilishga mo‘ljallangan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

**Sanoat ishlab chiqarishda o‘zgarish indekslari** – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir; Iste’mol mollari – asosan shaxsiy iste’mol yoki foyda olish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

**Natura ko‘rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi** – boshqa korxonalarga jo‘natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o‘z ichiga oladi, ya’ni yalpi mahsulot;

**Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko‘ra guruhlash** Yevrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

**Mahalliylashtirish darajasi** – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; Mahalliylashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to‘lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo‘lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi; mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno);

**Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati** –O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda to‘ldiriladi.